

"O'TGAN KUNLAR" - O'ZBEK PROZASINING YUKSAK NAMUNASI.

Mirzarahimova Hilola Raimovna

*O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotda katta o'rin egallagan, buyuk nosir Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida ilgari surilgan asosiy mazmun-mohiyat haqida, yozuvchi tasvirida qahramonlar xarakteri, o'ziga xosligi haqida.

Abdulla Qodiriy ijodining muhim xislati-tarixiy burilishlar davrida xalq ichida bo'layotgan katta hodisalar tasviriga murojaat etishidir.

U shunday ijobiy xususiyatdan kelib chiqib, kitobxonning mehr-muhabbatini qozona oladigan asar yozishi zarur edi. Yozuvchi buni his etgan holda, Otabek va Kumushning tarixiy davr silsilasi bilan qorishib ketgan o'lmas va fojeali sevgisini o'ylab topdi.

Asar shunchaki sevgi mavzusiga bag'ishlanmagan, balki unda ikki qalbning yal-yal tovlanib turgan muhabbat chamanzorini xazon etgan tarixiy muhit, turfa insonlar taqdiri, o'zaro ziddiyatlar tasvirini ham qalamga olgan.

Romandagi tarixiy davr chizgilariga boy bo'lgan o'rinlar kitobxonni ohanrabo singari o'ziga tortadi. tarix bizga voqealarni sahna tomonidan ko'rsatadi. Ichkarida bo'layotgan hodisalar ustidagi pardani ko'tarib tahsildiki, bu hodisalar orqasida bizga ko'rsatilayotgan voqealar manbasi ham, ularning kundalik oddiy hayotda qanday ro'y berishi ham bekinib qoladi. "O'tkan kunlar" romaninig ma'no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Uning tahlilida estetik asos ustvordir, asarda yashiringan go'zallikni topish oson emas. Yashirinmagan narsa hodisada esa go'zallik bo'lmaydi...1

Abdulla Qodiriy o'z tasvirida tarixiy shaxslar Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek va boshqlarning hayoti va faoliyatiga ham e'tirbor bergan holda, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini Otabek va Kumushning hayotiga chambarchas bog'lagan holatda aks ettiradi. Bilamizki, har qanday badiiy asar qahramoni ichki olami va tashqi qiyofasi bilan kitobxon mehrini qozonishi va unga ibrat bo'la olishi lozim. Shu nuqtayi nazardan markaziy qahramonlarimiz obrazlarga yondashidigan bo'lsak, ularning har ikkisi ham o'quvchini ortidan ergashtirishga qodir, o'zlaridagi ijobiy sifatlarni xotiraga payvand qila oluvchi qahramonlar ejaniga ishonch hosil qilamiz. Romandagi har bir qahramon – alohida bir dunyo. Eng go'zal va aksincha, eng tuban fe'lli qahramonlar ham o'tkir bo'yoqlarda ko'rsatilgan. Barchasi umrbod esda qoladigan hayotiy lavhalar. Buning ustiga romanni qo'lingizga olib o'qiy boshlashingiz bilan sizni asta-sekin tarixiy betakror hayot manzarasi, ya'ni o'tgan XIX asr o'rtalarida sodir bo'lgan hodisalar, voqealar o'z ichiga olib kirib ketadi. O'sha davrdagi hayot ham, odamlar ham asar sahifalarida shu qadar tirikki, adib qalamida, so'zida sehr bormi, deysiz.

Habibulla Qodiriyning ta'kidlashicha, otasi o'z asarida kitobxonga to'g'ri tasavvur berish maqsadida shaharlar kezib, ko'p yashagan, o'sha davrni ko'rgan, eshitgan shaxslarni

izlagan, ular bilan suhbatlashgan va asardagi har bir harakat o'rinlarini aniqlagan, mo'ljallagan, taxminlagan.

Men Marg'ilon ko'chalarida yurib, karvonsaroy, eski O'rda o'rinlarini belgiladim. Mirzakarim qutidor, usta Olim, Homid, Sodiqlar uyini taxminladim va

“Xo'ja Ma'oz”da bir necha tunadim, – derdi dadam mening roman haqidagi maydachuyda, ezma savollarimga ham javob berib...2

Abdulla Qodiriyning o'g'li tomonidan yozilgan bu xotirani o'qib, romandagi badiiy kuchning manbalarini yanada aniqroq ilg'aysiz. Demak, adib o'z asarini yozishdan oldin katta tayyorgarlik ko'rgan, yurt kezzan, romandagi turmush va odamlar tasvirining har bir chizig'ini katta mashaqqatlar bilan qo'lga kiritgan.

Aytaylik , Kumush obrazini ko'z oldida gavalantira olgan har bir shaxs haqiqiy o'zbek qizi qanday sifatlarga ega bo'lmoqg'i kerakligi haqidagi savollarga javob topa oladi. Qahramonimizning to'y oldidan qalbida kechgan hislariga e'tibor beradigan bo'lsak, u bo'lajak kuyovining kim ekanligini ham bilmay turib, otasining ra'yiga qarshi bormay, hatto yuragidan joy olgan inson kim ekanligini aytishni o'ziga ibosizlik deb biladi. Vaholanki, qalbi iztirobga to'la, ko'zlarida tomchilar aylanayotgan , kipriklari yosh bilan belangan yosh kelinning kutilmagan bir vaziyatda noma'lum kuyovning Otabek bo'lib chiqishi Kumushbibining shirali ovozi bilan "Siz o'shami...?" deyishida ham oz'bekona lutf sezilib turadi.

Yoki bo'lmasa, Zaynab timsoliga ham bir nazar solsak, unda ham ayb yo'q. U ham o'z yori bilan birga bo'lishni xohl;aydi. Avval boshida, Kumushni ham opa o'rnida ko'radi. Qaynota, qaynona si hurmatini ham o'zbek kelinlariga xos nazokat bilan ado etadi. Biroq, uning qo'liga og'u tutgan qandaydir bir his asar so'ngida uning shayton shogirdiga aylanishiga olib keladi. Aslida, u ham ota amriga bo'ysunuvchi itoatkor farzand, o'z hislariga asir mahbubadir. Otabekdek asl o'zbek og'lioni tasviriga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ayni damda Otabeklar ko'payishini chin dildan istab qolamiz. Muhabbat asiriga aylangan qahramonimizning boshidan kechirgan voqealarni, tikanli to'siqlarni sabr bilan yengishi ham uning zamona qahramoniga aylanishini inkor etmaydi. Shu narsa qiziqkiki, Otabekning oldida turgan to'siq uning baxtiga chang solmoqchi bo'lgan Homiddangina iborat emas. Lekin uning ayni bir vaziyatda "ota-on orzusi" deb atalgan boshq abir to'siqni xatlab o'tishi juda murakkab. Negaki, Otabekdagi farzandlik burchi, ota-ona orzusidagi o'gil bo'lish, validasining istaklarini qondira olishi uning yuragidan kurtak otgan muhabbat tuyg;usidan aslo kam emas.

Darhaqiqat. kitobxon qalbida o'zgacha his uyg'ota olish qudratiga ega bo'lgan Otabekning yana bir sifati uning xalqparvar, yurt xizmatiga shay, xalq va vatan dardi bilan yonuvchi inson bo'lganligidandir. Oddiygina bir misol, Ziyo shohichining uyida bo'lgan ziyofat paytida marg'ilonlik mehmonning tinglovchilar qistovi bilan Shamay xotiralarini so'zlashga kirishganida yurtning ancha narsadan ortda qolayotgani, hali ancha mashaqqatli yo'l bosib otib, hukumat qonunlarini o'zgartirish kerakligi va buning uchun xon o'rdasiga arz qilishni alohida ta'kidlab o'tadi. Sevgi va muhabbat chechaklari chaman bo'lib ochilgan asarda xalq va yurt taqdiri bilan bog'liq og'riqli xotiralar "qizil ip" yang'lig' olov sochib turadi.

"O'tgan kunlar " romanida muhabbat mavzusi bilan birga tarixiy davr manzarasi, o'zbek xalqiga xos millatparvarlikning yorqin namunasi aks etgan. Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor o'zbekona milliy urf-odatlar qo'riqchisi bo'lgan O'zbekoyim va Oftoboyimdek betakror obrazlar ham borki, ular Abdulla Qodiriy asariga yuksak badiiyatning oltin kukunlarini sochib turadi. Adib qalamga olgan turfa taqdirilar, birbiriga tutash voqea-hodisalar , milliylik ufurib turgan alohida o'rinlar , ibrat olsa arzigulik obrzalar bo'lmaganda edi, asar bu darajada shuhrat topmagan va yillar davomida avlodlar qo'lidan tushmay o'qilmagan bo'lardi. Ulkan qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov fikricha: "O'tgan kunlar" romani bilan Abdulla Qodiriy 20-yillarda "Sharqning eng ulkan yozuvchisi bo'lib qolgan edi".

"O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyoti xazinasining bebaho durdonasi hisoblanadi. Asar biz boshqa asarlardan qidirib ham topa olmaydigan, milliyligimizni tarannum etuvchi unsurlarga liq to'la. Qolaversa, romanning davr hayotini ochib berishdagi roli ham beqiyosdir. Barchangiz ushbu asarni bir marotaba bo'lsa ham o'qiganingizni bilaman, ammo "O'tkan kunlar" bizga o'tgan kunlarimizdan dars beruvchi, bizga bizni o'rgatuvchi romandir. Zero adibning o'zi ham ta'kidlab o'tganidek, "Bu romanni bir marta emas, besh marta o'qish kerak".

#### FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 90
2. Qodiriy, Habibulla. Otam haqida: Xotiralar.-To'ldirilgan 2-nashri.-T.: 1983 yil, 65bet